Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 1
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

XOTIN-QIZLARNING MA'NAVIY-INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RO'YOBGA CHIQARISH — BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK ASOSI SIFATIDA

Shoira Azizovna Rasulova*
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi
✉ rasulovashoirahon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan jamiyat transformatsiyasi sharoitida xotin-qizlarning ma'naviy-intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishning barqaror rivojlanishga ta'siri aksiologik hamda sotsiologik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda ayollarning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish milliy va hududiy taraqqiyotning, shuningdek, jamiyat barqarorligining muhim strategik drayveri ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, xotin-qizlarning ilmiy va ijtimoiy-madaniy sohalardagi faolligini kuchaytirishga to'sqinlik qilayotgan omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha konseptual taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

xotin-qizlar faolligi, ma'naviy-intellektual salohiyat, barqaror rivojlanish, aksiologiya, sotsial ekotizim, gender tengligi, inson kapitali, Yangi O'zbekiston.

DOI: 10.5281/zenodo.21743700

KIRISH

Zamonaviy dunyoda jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy barqarorligi ko'p jihatdan inson kapitalining sifat ko'rsatkichlariga va undan samarali foydalanish darajasiga bog'liq bo'lib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida (BRM) ham inson salohiyatini ro'yobga chiqarish, xususan, gender tengligini ta'minlash va xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish global kun tartibining markaziy masalalaridan biri sifatida belgilangan.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini yuksaltirish, ularning ma'naviy va intellektual salohiyatini to'laqonli namoyon etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish ustuvor yo'nalishga aylandi. Xotin-qizlar nafaqat ijtimoiy va oilaviy qadriyatlarning tashuvchisi, balki mamlakatning innovatsion va intellektual rivojlanishini harakatlantiruvchi yetakchi kuch hisoblanadi. Shu sababli, ularning ma'naviy va intellektual resurslarini samarali safarbar etish mexanizmlarini ilmiy va aksiologik nuqtai nazardan tadqiq qilish muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Xotin-qizlar salohiyatini o'rganishda aksiologik yondashuv jamiyatdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy mezonlar hamda oilaviy institutlar doirasida ayol shaxsining o'rnini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlar salohiyatini tadqiq etishda aksiologik (qadriyatli) yondashuv shunchaki statistik yoki iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmay, jamiyatdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy mezonlar hamda oila institutining transformatsiyasi doirasida ayol shaxsining sotsio-madaniy o'rnini fundamental baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv ayolni nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi, balki jamiyatning ma'naviy va intellektual asosini belgilovchi, qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tkazuvchi strategik subyekt sifatida e'tirof etishga xizmat qiladi. Jadidchi Abdurauf Fitrat ta'kidlaganidek,

”Onaning ma'rifatli bo‘lishi — millatning saodatsizlikdan qutilishining birinchi shartidir”.

Bugungi kunda ayol kishining zamonaviy IT-ko‘nikmalarni yoki xorijiy tillarni egallashi (umuminsoniy qadriyat) va buni farzandiga milliy tarbiya bilan qo‘shib berishi (milliy qadriyat) aksiologik yondashuvning amaldagi ifodasidir. Ma'rifatli ayol bergan tarbiya jamiyatda jinoyatchilik va loqaydlikning oldini oluvchi eng arzon hamda samarali ma'naviy filtrdir. Bugungi kunda ko‘plab xotin-qizlar ham ilmiy/professional karera qilmoqda, ham oilada an'anaviy bekalik va onalik vazifasini bajarishmoqda. Agar ayol faoliyatiga faqat sof moddiy foyda nuqtai nazaridan qaralsa, uning oiladagi va jamiyatdagi roli o‘rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Aksiologik yondashuv esa ”oila va karera” o‘rtasidagi muvozanatni qadriyat darajasiga ko‘taradi. Masalan, oilada erkak va ayolning bir-birini qo‘llab-quvvatlashi, ma'naviy mas'uliyatni teng bo‘lishishi oila institutini yemirilib ketishdan saqlab qoladi va ayolning ruhiy-ma'naviy salohiyatini to‘liq namoyon etishiga imkon beradi. Xotin-qizlar salohiyatini o‘rganishda aksiologik yondashuvni qo‘llash jamiyat transformatsiyasi davrida g‘oyaviy va ma'naviy bo‘shliqlarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. U ayol shaxsini faqat iqtisodiy resurs sifatida emas, balki barqaror rivojlanishning ma'naviy-axloqiy va intellektual kafolati sifatida tahlil qilishga xizmat qiladi.

Xotin-qizlar salohiyatini tadqiq etishda sotsial ekotizim konsepsiyasi ayol shaxsini izolyatsiyalangan subyekt sifatida emas, balki ta'lim, ilmiy-innovatsion, oilaviy va ijtimoiy-institutsional muhitlar o‘rtasidagi sinergetik aloqadorlikning markaziy bo‘g‘ini sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv xotin-qizlarning o‘zgaruvchan sotsio-iqtisodiy sharoitlarga intellektual moslashuvchanligini (adaptivligini) hamda ularning ijtimoiy kapitalini shakllantiruvchi tashqi omillar ta'sirini kompleks baholashga xizmat qiladi. Agar sotsial ekotizim to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa (masalan, masofaviy ish o‘rinlari, moslashuvchan ish grafigi, xavfsiz raqamli infratuzilma va oilaning qo‘llab-quvvatlashi mavjud bo‘lsa), u intellektual moslashuvchanlik ko‘rsatib, uyda o‘tirgan holda ishlaydi. Bu o‘rinda ta'lim, texnologiya va oila muhiti bir-birini to‘ldirib, ijtimoiy ekotizimni hosil qiladi. Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishda sotsial ekotizim konsepsiyasini qo‘llash shuni ko‘rsatadiki, ayol kishining intellektual va mehnat salohiyatini ro'yobga chiqarish manbalari faqatgina uning shaxsiy harakatlariga emas, balki uni o‘rab turgan institutlar va infratuzilmaning sinergetik integratsiyasiga bog‘liq. Moslashuvchan ish usullari va raqamli texnologiyalarning oilaviy va ma'naviy qo‘llab-quvvatlov bilan hamohangligi xotin-qizlarga an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy bilimlar iqtisodiyotining faol subyektiga aylanish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatda inson kapitali sifatini oshirishning va sotsial barqarorlikni ta'minlashning strategik mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Xotin-qizlarning ma'naviy-intellektual salohiyati murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u ikki asosiy komponentning sintezini ifodalaydi.Ma'naviy-axloqiy komponent jamiyatda ma'naviy barqarorlikni saqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avloddan-avlodga o‘tkazish, oilaviy va ijtimoiy muhitda sog‘lom ma'naviy iqlimni shakllantirish imkoniyatini yaratadi.Intellektual-innovatsion komponent esa bilim olish, ilmiy va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish, raqamli hamda texnologik ko‘nikmalarni egallash va ularni iqtisodiyot hamda boshqaruv sohalarida amalda qo‘llash salohiyati jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida va ilmiy faoliyatda xotin-qizlar ulushining ortishi ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Masalan, magistratura hamda doktorantura bosqichlarida ayol-qizlar uchun yaratilgan imtiyoz va grantlar ularning intellektual faolligini keskin oshirdi. Ma'naviy-intellektual salohiyat va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik bevosita inson kapitali nazariyasi orqali izohlanad. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida yosh olimalar hamda tadqiqotchi ayollar uchun moslashtirilgan ish va o‘qish grafiklarini, ilmiy-pedagogik inkubatorlarni kengaytirish.Qishloq joylaridagi xotin-qizlar uchun mo‘ljallangan onlayn ma'rifiy va intellektual platformalar, mediasavodxonlik hamda AKT loyihalarini ko‘paytirish. Ommaviy axborot vositalari va sotsial ekotizim (mahalla, ta'lim muassasalari) doirasida ma'rifatli va intellektual ayol obrazining ijtimoiy jozibadorligini oshirishga qaratilgan maqsadli media-kontentlarni yaratish shart. Sharq mutafakkirlari, xususan, Jadidchilik harakati namoyandalari A.Fitrat, I.Ibrat, S.Ahroriylar ta'kidlaganlaridek, ayollarning ma'rifatli bo‘lishi butun millat va jamiyat taraqqiyotining asosiy shartidir. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ma'naviy-intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish — shunchaki ijtimoiy yordam ko‘rsatish emas, balki mamlakat barqaror rivojlanishining uzoq muddatli strategik resursiga kiritilayotgan sarmoyadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: ”O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining ”Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni. – 02.09.2019 y.
3. Fitrat A. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 112 b.
4. Giddens A. Sociology. 8th Edition. – Cambridge: Polity Press, 2017. – 1088 p.
5. Nussbaum M. C. Creating Capabilities: The Human Development Approach. – Cambridge: Harvard University Press, 2011. – 256 p.
6. Saidov A.X., Toshqulov J.Z. Inson huquqlari va gender tengligi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Adolat, 2020. – 320 b.
7. Jalolova S.I. Zamonaviy jamiyat transformatsiyasida xotin-qizlar ijtimoiy faolligining aksiologik xususiy-atlari . Falsafa va huquq. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 45–48.
8. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Barqaror rivojlanish maqsadlari: O‘zbekiston amaliyotida. https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs